

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 694 sahifa.
E‘lon qilishga 2025-yil
30-sentabrda ruxsat etildi.

M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

Achilov Mashrab Ulugʻbekovich

Dunyo va Oʻzbekistonda meva-sabzavotchilik tarmogʻining rivojlanish bosqichlari.....9

Alimova Shamsiya Abidovna

Taʼlim xizmatlari koʻrsatuvchi muassasalarda eksportga yoʻnaltirilgan raqobat strategiyalarini joriy qilishni takomillashtirish.....18

Кадирова Хадича Тураевна

Развитие рынка облигаций в Узбекистане.....24

Raxmonova Nargiza Rashidovna

Tashqi savdoni rivojlantirishda avtomobil chegara bojxona postlarining samaradorligini oshirish yoʻllari.....31

Jumayeva Zamira Bustonovna

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirishning marketing mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).....38

Roʻzmetov Kamol Ibadullayevich

Ijtimoiy sohani barqaror rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish yoʻnalishlari.....44

Sultanova Xilola Jamolutdinovna

Oʻzbekistonda elektrotexnika sanoati va uning amaldagi holati tahlili.....49

Ibragimov Aziz Turayevich

Charm-moʻyna sanoat tarmogʻida investitsion va innovatsion strategiyalarni takomillashtirish (Buxoro va Navoiy viloyatlari misolida).....56

Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich

Xorazm viloyati tuman va shaharlarining eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligi tahlili.....63

Raximova Lolaxon Avazovna

Mintaqaning turizm salohiyatini oshirish masalalari.....73

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

Sogʻliqni saqlash tizimida asosiy rivojlanish koʻrsatkichlarini barqarorlashtirishning ilgʻor xorijiy mamlakatlar tajribasi.....80

Naimov Azamat Xikmatovich

Innovatsion korxonalar boshqaruvi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish ustuvorliklari.....92

Boltayev Nurali Shiramatovich, Roziqov Jahongir Mustaqim oʻgʻli

Respublikamizda meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmini oshirish yoʻllari.....102

Baymirzaev Dilmurod Nematovich

Risk pasporti asosida hosildorlik riskini tizimli baholash metodologiyasi.....112

Davletova Sevara Narimonovna

Rivojlanayotgan bozorlarda innovatsion loyihalarni boshqarish amaliyoti.....120

Axmedov Farxod Raxmonjonovich

Mahalliy hokimiyat tizimida qaror qabul qilish samaradorligini baholash: institutsional va amaliy tahlili.....131

Abror Sayitmuradovich Boltaev

Opportunities to raise the revenue from agricultural business for sustainable development goals.....139

Ergash Ibadullaev

Methodological approaches to increasing export efficiency in the development of the regional economy.....147

**DUNYO VA O'ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK
TARMOG'INING RIVOJLANISH BOSQICHLARI****ACHILOV MASHRAB ULUG'BEKOVICH**

Toshkent davlat agrar universiteti
Agrobiznesni boshqarish va logistika
kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada meva-sabzavotchilikni modernizatsiyalash bo'yicha mavjud muammolar keltirilgan bo'lib, uni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash yuzasidan ilmiy va amaliy ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: meva-sabzavotchilik, modernizatsiya, innovatsion texnologiyalar, intensiv bog'lar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi, tabiiy-iqlim sharoiti, imtiyozlar, subsidiya.

Аннотация. В статье приведены имеющийся проблемы в плодовоощеводстве и разработаны научно-обоснованные и практически значимые рекомендации по государственные поддержки модернизатсии плодовоощеводства.

Ключевые слова: плодовоощеводства, модернизация, инновационные технологии, интенсивное садоводства, механизмы государственной поддержки, природно-климатические условия, преференции, субсидия.

Abstract. The article presents the existing problems in fruit and vegetable growing and developed scientifically grounded and practically significant recommendations for state support for the modernization of fruit and vegetable growing.

Keywords: horticulture, modernization, innovative technologies, intensive gardening, mechanisms of state support, natural and climatic conditions, preferences, subsidies.

KIRISH

Respublikamizning innovatsion iqtisodiyotga o'tishi sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog'ini va uning qiymat zanjiri bo'yicha har bir bo'g'inini rivojlantirish bo'yicha dunyo miqyosida to'plangan tajriba, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan turli dasturlarni amaliyotga joriy qilish natijalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarning rivojlanish yo'li hamda hududiy jihatdan yaqin bo'lgan davlatlar tajribalaridan keng foydanmasdan turib meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu nuqtai nazardan, meva-sabzavotchilikni modernizatsiyalashda, avvalambor, rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan va endigina rivojlanayotgan mamlakatlarning meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiyalashni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlarining ijobiy va salbiy tomonlarini, bu boradagi muammo va kamchiliklarni aniqlash asosida mavjud tajribalarning maqbul jihatlarini respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda

amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Niderlandiyaning iqtisodiyoti eksportga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega, ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari barchasi ustuvor ravishda tashqi bozorlarda sotiladi. Mamlakat eksportidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi 24 foizni tashkil etadi. Niderlandiya 2018-yilda 91,7 mlrd. yevro qiymatga ega bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilgan. Aytish joizki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mexanizatsiyalashganlik darajasi juda yuqoridir. Aynan zamonaviy bilim va texnologiyalarni keng joriy etilishi Niderlandiyaning oziq-ovqat mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha AQSHdan keyin ikkinchi o'rinni egallashiga sabab bo'ldi. Aytish joizki, Niderlandiya dunyoda yer maydoni kattaligi bo'yicha 131-o'rinda turadi. Bunday ulkan natijalarga Niderlandiya hukumatining "ikki marta kam resurs va ikki marta ko'p oziq-ovqat" tamoyili asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar, shuningdek, GAT (geografik axborotlar tizimi) hamda uchuvchisiz apparatlardan foydalangan holda aniq dehqonchilik yuritish tizimini keng joriy qilishi orqali erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mutlaq raqamlarda aytadigan bo'lsak, mamlakatning butun dunyodagi jami qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportidagi ulushi 7,5 foizni tashkil etadi. Sabzavot mahsulotlari eksporti bo'yicha Xitoydan keyin ikkinchi o'rinda, meva mahsulotlari eksporti bo'yicha esa AQSH, Ispaniya va Chilidan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi.

Ta'kidlash lozimki, Niderlandiyada qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlarning narxi nisbatan juda yuqoridir, taxminan 1 ga yer narxi 50-70 ming yevro turadi. Shuning uchun fermerlar ko'proq undan ijara asosida foydalanishni ma'qul ko'radilar. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish tayyorlov kooperativlari bilan oldindan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi kooperativlarining mamlakat bozoridagi ulushi 70 foizni tashkil etadi. Lekin, fermerlar majburiy ravishda kooperativga a'zo bo'lishi kerak emas, balki ular o'z tadbirkorlik faoliyatlarini mustaqil ravishda yuritishlari mumkin. Kichik fermer xo'jaliklari uchun zararlarni qoplab berishda soliq imtiyozlari ko'zda tutilgan. Milliy kooperativlarning samaradorligini va natijadorligini ta'minlash uchun transmilliy kooperativlar tuzilgan va ularga bir nechta kooperativlar ixtiyoriy ravishda birlashganlar. Kooperativlarni bunday tuzilmalarga birlashuvi xo'jalik yuritishga oid bo'lgan ko'pgina muammolarni tezkor ravishda hal qilishga va mahsulot ishlab chiqarishni jahon standartlariga mos ravishda yo'naltirishga imkon berdi.

Mutaxassislarning fikricha, Niderlandiya qishloq xo'jaligini muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omillari bular: eksportyorlarni rag'batlantirish va kompaniyalarni tashqi bozorlarning yangi sohalariga kirib borishlariga yaqindan ko'mak berilishi, meva-sabzavotchilikda mahsulot yetishtirishdan to iste'molchiga tayyor mahsulotni yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan vertikal tizimni yo'lga qo'yilganligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash davriyligining barqarorligi va agrar oziq-ovqat sektorining ilmiy-tadqiqot muassasalari

balan uzviy hamkorligidadir[1].

AQSH qishloq xo'jaligida meva va sabzavot ekinlari o'zining turli tumanligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina holatlarda meva va sabzavot yetishtirish tabiiy-iqlim sharoitlari qulay bo'lgan hududlarda mujassam bo'lganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Meva va sabzavot ekinlari asosan Kaliforniya va Florida shtatlarida yetishtiriladi. Bu yerda deyarli 70 foiz mevaning (qiymati bo'yicha) va deyarli barcha sitrus mevalarning (apelsin va limon) hosili yig'ishtirib olinadi. Ikkala shtat hududlari ertagi va qishgi sabzavot ekinlarini va gullar yetishtirish bo'yicha ham eng salmoqli o'rinlardan birini egallaydi. Bundan tashqari Buyuk ko'l qirg'oqlari hududi ham meva va uzum yetishtirishga juda qulay hisoblanadi, chunki ushbu ko'llar bog' va tokzorlarni muzlab qolish havfini birmuncha yumshatishga yordam beradi.

Umuman olganda AQSH dunyoda eng yirik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Bu yerda dunyoda birinchilardan bo'lib, qishloq xo'jaligida agrotadbirkorlik faoliyati keng yo'lga qo'yilgan. E'tiborlisi shuki, agrar sohada unumdorlikning o'sish sur'atlari sanoatga nisbatan ham tezroq odimlab bormoqda. Masalan, oxirgi 10 yilda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi o'sish darajasi 81 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligini nechog'lik intensiv ravishda rivojlanayotganligini quyidagi ko'rsatkichlardan ham bilib olsa bo'ladi, ya'ni 1 gektar yerdan 580 dollardan 1100 dollargacha qiymatda mahsulot yetishtirilayotganligi, 1 nafar qishloq xo'jaligi xodimi 50-60 gektar maydongacha ishlov bera olishi va 80 kishigacha aholini boqa olishi va boshqalar. Qishloq xo'jaligida ishchi kuchning 2 foizi band bo'lib kelmoqda. Bunday yutuqlarga erishilishining asosiy omillarini biri bu zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etilishi, yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik, ilmiy yangiliklarni izchil ravishda joriy etib borilishi hamda fermerlarni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, AQSH qishloq xo'jaligi o'zining ixtisoslashganlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Masalan, Missisipi quyi oqimi bo'ylab paxtachilik rivojlangan bo'lsa, Gavay orollarida shaqarqamish, Virjiniya va Korolina shtatlarida tamaki va Shimoliy shtatlarda esa meva, sabzavot va kartoshka ekinlari yetishtiriladi[2].

Amerika qo'shma shtatlarida bunday samarali agrar siyosat birinchi navbatda 2008-yilda qabul qilingan "Oziq-ovqat, tabiatni muhofaza qilish va energetika to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu qonun qabul qilinishi bilan fermerlarni qo'llab-quvvatlovchi bir qator davlat dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Jumladan, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

Mahsulotni sotish uchun qarz yordami berish dasturi. Ushbu dasturga ko'ra, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan mahsulotni Tovar-kredit korporatsiyalari (TKK) orqali sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Hosil yig'ib olinganidan keyin ishlab chiqaruvchi amaldagi stavkalarda sotish uchun qarz olishi mumkin bo'ladi. Bunday qarz fermer yig'ib olgan hosilni sotish uchun taklif kilgan qismi uchun yoki to'lig'icha olinishi mumkin. Qarzlarni qaytarish esa asosiy summa va unga nisbatan foiz hisobida amalga oshiriladi.

Kreditlash dasturi. Meva-sabzavot yetishtiruvchi fermerlar moliyaviy holati yetarli bo'lmaganda ishlab chiqarishni tubdan texnik va texnologik jihatdan yangilash,

yer sotib olish hamda boshqa joriy ishlarni amalga oshirishlari uchun AQSH Qishloq xo'jaligi vazirligi xuzuridagi Fermerlarga xizmat ko'rsatish agentligidan kredit olishlari mumkin. Bundan tashqari kredit qarzlarini tabiiy ofatlar ro'y berganda, favqulodda vaziyatlarda ham keltirilgan zararlarni qoplash va xo'jalikni qayta tiklash uchun ham beriladi.

Ilmiy-tadqiqotlar uchun moliyaviy ko'mak berish dasturi. AQSH Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrar tadqiqotlari xizmati va boshqa shtatlarda tuzilgan Agentliklar va universitetlar orqali keng ko'lamli fundamental va amaliy ilmiy izlanishlar moliyalashtiriladi. Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish maqsadida, uni vazirlik tomonidan muntazam ravishda muvofiqlashtirish, nazorat qilish va monitoring qilish xizmati yo'lga qo'yilgan.

Hosilni sug'urtalash va tabiat hodisalari yuz berganda yordam berish dasturi. Hosilni sug'urtalash xususiy kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ushbu kompaniyalar hosil sug'urtasi bo'yicha Federal korporatsiya tomonidan belgilangan stavkalarda subsidiyalari olishadi. Bundagi barcha jarayonlar AQSH Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Xavf-xatarlarni boshqarish agentligi tomonidan nazoratga olinadi.

Eksportga ko'maklashish dasturi. AQSHning "Tashqi bozorga imkoniyat" deb nomlangan dasturi orqali vakolatli tashkilotlarga chet elda mahsulot sotish, reklama qilish, yarmarkalar tashkil qilish, bozor konyunkturasini o'rganish, chet el iste'molchilarning AQSHda ishlab chiqarilayotgan tovarlar bo'yicha boxabarligini oshirish uchun seminarlar o'tkazish va hokazolar uchun moliyaviy ko'mak beriladi. Brend mahsulotlar uchun taqdim etiladigan moliyaviy yordamlar esakichik xo'jaliklar, kooperativlar va ishlab chiqarish uyushmalari doirasida amalga oshiriladi.

Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha dastur. Ushbu dasturlarda ishtirok etish ixtiyoriy bo'lib, u tuproq eroziyasiga qarshi kurash, suv bilan ta'minlash tizimini yaxshilash va sifatini oshirish, atrof-muhitni himoyalash, tabiat hodisalari tufayli zararni kamaytirish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu yerda fermerlar ijara to'lovlarini to'lash, yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya tarmoqlarini qayta tiklash kabi tadbirlarga ketgan xarajatlarini qoplash kabi qo'llab-quvvatlashning dastaklaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Dastur doirasida qishloq xo'jaligiga yaroqsiz bo'lgan yerlarni qaytarish, haydov yerlaridan intensiv tarzda foydalanish kabi yo'nalishlarga ham moliyaviy ko'mak olish mumkin[3].

Isroilda jami yerlarning faqatgina 20 foizigina qishloq xo'jaligi uchun yaroqlidir. Lekin shunday sharoitda fermerlar tomonidan mamlakat aholisining yangi uzilgan meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabi 95 foizga qondirilmoqda. Sug'orish suvining sezilarli darajada yetishmasligi sharoitida tomchilatib sug'orish texnologiyasi juda rivojlangan. Isroil hukumati fermerlar tomonidan sotib olingan va joriy etilgan texnologiyalar qiymatining 40 foizigacha subsidiyalash orqali agar sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa "aqlli qishloq xo'jaligi"ni har tomonlama joriy qilishga alohida e'tibor berilishi natijasida sug'orish tizimida, issiqxonalarda, hosil yig'ib olishda va boshqa agrotexnik jarayonlarni raqamli texnologiyalar yordamida bajarilishiga yordam beruvchi texnika va jihozlarni joriy qilish uchun fermerlarga davlat tomonidan subsidiyalari ajratilishi keng yo'lga qo'yilgan.

Koreya Respublikasining qishloq xo'jaligi yuqori texnologik tarmoq sifatida alohida diqqatga sazovordir. Koreyada nafaqat qishloq xo'jaligi balki iqtisodiyotning va insonlar hayot faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yangiliklarni joriy etilishida davlat tomonidan har tomonlama ko'mak beriladi. Koreya Respublikasi qishloq xo'jaligining innovatsion rivojlanish yo'li noyob bo'lib, mamlakatimiz uchun oziq-ovqat muammosini hal qilishda va agrar sohani innovatsion yo'lga o'tkazishda keng foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

2018-yilda Koreya Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi butun mamlakat bo'ylab "aqlli" fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va investitsiyalashga tayyor ekanligini va uning maydonini 7 ming gektargacha oshirishni e'lon qildi. Xususan, qishloq xo'jaligi korxonalarida turli-tuman maxsus haroratni boshqaruvchi, tejamkor va aniq tomchilatib sug'orish uskunalari, dronlar, datchiklar va boshqa dasturiy ta'minot mahsulotlaridan keng foydalaniladi. Sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi issiqxonalarda barcha agrotexnik jarayonlar kompyuter dasturi yordamida boshqariladi, bu yerda avtomatika ekinlarni qulay o'sishi va rivojlanishini uchun kerak bo'ladigan barcha parametrlarni tartibga solib turadi, zarur bo'lganda tegishli o'zgartirishlar kiritib boradi. Mutaxassislar o'zlarining mobil telefonlaridagi ilovalar yordamida issiqxona xo'jaligida bo'layotgan jarayonlarni bevosita kuzatib turish imkoniyatiga egadirlar. Shu bilan birgalikda o'simlik zararkunandalari bilan kurashishda maxsus tutkichlar orqali hashoratlarini jalb qilish tajribasi ham qiziqarlidir[4].

Rossiya iqtisodiyotida xo'jalik yuritishning kooperativ shakli keng rivojlangan bo'lib, birinchi kooperativ tuzilmalari Rossiya imperiyasi davridan shakllanib kelgan bo'lib, ular o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli tarzda olib borishgan. Kooperativlar yashovchanligining asosiy shartlaridan biri bu kooperativ a'zolari o'rtasidagi ishonch va adolatning mavjud bo'lishidir. Masalan, Rossiyaning Nijgorod hududida hozirda 40 dan ortiq turli yo'nalishdagi kooperativlar faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan 10 ga yaqini mevachilik va issiqxona xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Ushbu kooperativlarga yiliga 50-100 kg meva mahsulotlari yetishtiradigan tomorqa egalari ham, katta miqdordagi mahsulot yetishtiruvchi yirik fermer xo'jaliklari ham a'zo bo'lishgan, bunda hududdagi barcha turdagi katta-kichik ishlab chiqaruvchilar barchasi qamrab olingan.

Kreditlash Rossiya qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim dastaklardan biri bo'lishiga qaramasdan, banklar agrar sohaga mablag' berishdan uncha manfaatdor emaslar. Shu boisdan davlat kredit qaytarilishini kafolatlashni va kredit foiz stavkalarini bir qismini qoplab berishni o'z zimmasiga oladi[5].

Hozirgi vaqtda Qozog'iston Respublikasida "aqlli qishloq xo'jaligi"ning elementlarini joriy etish ishlari boshlab yuborilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi erlarining dala xaritalarini raqamlashtirish jarayonlari boshlangan bo'lib, deyarli yarimdan ko'proq maydonlarning elektron xaritalari tuzilgan. Bundan tashqari dalalar va texnika vositalarini hamda mineral o'g'itlar va kimyoviy preparatlar bilan aniq ishlov berishni sputnik orqali monitoring qilish tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Maqolada dunyo va O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanish bosqichlari va uning asosiy jihatlarini tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Mutaxassislarning fikricha, aniq dehqonchilik, dalalarni elektron xaritasini tuzish, aniq meteo ma'lumotlar, sensorlar, datchiklar, kosmo-monitoring kabi tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar xarajatlarini kamida 25 foizgacha qisqartirishga imkoniyat yaratiladi.

Qozog'iston Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan bashorat qilinishicha Agrosanaot majmui sohasini raqamlashtirish natijasida iqtisodiy samaradorlik 2025-yilga borib 40 mlrd. tanga (105,5 mln. doll.) ni tashkil etadi.

Qozog'iston Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan 2019-yildan boshlab ASM mahsulotlarini, ayniqsa meva-sabzavotchilik mahsulotlarini "daladan to dasturxongacha" kuzatib borish tizimi ishga tushirilgan. Bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida zamonaviy asbob-uskuna va innovatsion texnologiyalarga asoslangan texnika vositalarini sotib olgan fermerlarning 25 foizgacha bo'lgan xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Qozog'istonda 2025-yilgacha ASMDa mehnat unumdorligini keskin oshirish va qayta ishlangan meva-sabzavot va boshqa mahsulotlar eksporti hajmini kamida 2,5 barobarga oshirish vazifasi davlat tomonidan belgilab qo'yilgan.

Tojikiston agrar sektorining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, qishloq xo'jaligining salmoqli qismi tog'oldi hududlarda amalga oshiriladi, yer resurslari esa o'ta cheklangan, shuningdek qishloq aholisining ko'pligi ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortiqchaligiga olib kelgan. Shu boisdan qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda ana shu xususiyatlar hisobga olingan. Paxta maydonlari asosan tekisliklarda joylashtirilgan bo'lsa meva-sabzavot ayniqsa kartoshka va uzum asosan qir-adirliklar tog'oldi hududlarda yetishtiriladi.

Tojikistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu yerda xar bir ekin turi (paxtachilik, sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog'dorchilik, tamakichilik va boshqalar) bo'yicha alohida davlat dasturlari qabul qilinib amalga oshirib kelinmoqda.

Rivojlangan va islohotlar yo'li o'xshash bo'lgan MDH mamlakatlarining meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiyalash bo'yicha ilg'or tajribalarini umumlashtirgan holda ulardan respublikamiz sharoitiga mos bo'lgan ayrim yo'nalishlarini joriy qilish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

Meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiyalash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishning asosiy yo'nalishlari

Mamlakat nomi	Respublikamiz sharoitiga mos va qo'llash mumkin bo'lgan xorijiy tajribaning mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
Niderlandiya	“Ishlab chiqaruvchi – davlat – fan” uchburchagini tashkil qilish, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchi korxonalari, texnika va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar, ilmiy muassasalar hamda davlat tuzilmalari o'rtasidagi uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish: milliy kooperativlarning samaradorligini va natijadorligini ta'minlash uchun transmilliy kooperativlar tuzish va ularga bir nechta kooperativlar ixtiyoriy ravishda birlashish tajribasi.	Qishloq xo'jaligi vazirligining tuman bo'limlari tomonidan ilmiy yechimini kutayotgan dolzarb mavzular aniqlanib, Bilim va innovatsiyalar milliy markazi uchun buyurtmalar portfelini shakllantirish; meva-sabzavotchilik kooperativlari soni ortib borishi boisidan ularni faoliyatini muvofiqlashtirish va muammolarini hal qilish maqsadida ularning viloyat uyushmalarini tashkil etish lozim
AQSH	Mahsulotni sotish uchun qarz yordami berish dasturi, kreditlash dasturi, ilmiy-tadqiqotlar uchun moliyaviy ko'mak berish dasturi, hosilni sug'urtalash va tabiat hodisalari yuz berganda yordam berish dasturi, eksportga ko'maklashish dasturi, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha dastur.	Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan alohida tor yo'nalishlar bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi tadbirlar samaradorligi va natijadorligini oshishiga olib keladi.
Isroil va Koreya	Fermerlar tomonidan sotib olingan va joriy etilgan texnologiyalar qiymatining 40 foizigacha subsidiyalash; Qishloq xo'jaligi vazirligi butun mamlakat bo'ylab “aqlli” fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etishi	Fermerlar ishlab chiqarishga joriy etgan yangi texnologiya va texnikalar uchun ketgan xarajatlarni hech bo'lmaganda 25 foizni davlat tomonidan to'lab berish mexanizmini joriy etish; aynan “aqlli qishloq xo'jaligi” elementlarini joriy etish bo'yicha maqsadli investitsiyalar ajratish.

Rossiya	Meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiyalash uchun 5 foizli 2 yildan 5 yilgacha bo'lgan imtiyozli kreditlar berish dasturi	Mahsulotni qayta ishlash va saqlashni tashkil etishni iqtisodiy rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratish.
Qozog'iston	Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish va agrar fanini hamda olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tajribasi	Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishni davlat tomonidan moliyalashtirish.

Manba: muallifning tadqiqotlari asosida tuzilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston meva-sabzavotchilik tarmog'ining rivojlanishida quyidagi davlatlarning ilg'or tajribalarini qo'llash lozim bo'ladi:

Isroil va Koreya tajribasidan kelib chiqib, fermerlar ishlab chiqarishga joriy etgan yangi texnologiya va texnikalar uchun ketgan xarajatlarni hech bo'lmaganda 25 foizni davlat tomonidan to'lab berish mexanizmini joriy etish;

AQSH tajribasidan o'rgangan holda qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan alohida tor yo'nalishlar, ya'ni mahsulotni sotish, kreditlash, ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish, sug'urtalash va boshqalar bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi tadbirlar samaradorligi va natijadorligini oshishiga olib keladi;

Rossiya tajribasi bo'yicha mahsulotni qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, issiqxonalar qurish va boshqa maqsadlar uchun maqsadli imtiyozli kreditlar berish mexanizmini joriy etish;

Qozog'istonda keng joriy etilayotgan qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, yerlarni elektron xaritasini tuzish, mahsulotni yetishtirishdan to iste'molchigacha bo'lgan jarayonlarni kuzatib borish tizimini yaratish, shuningdek, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va dolzarb bo'lgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish nuqtai-nazardan fermerlar tomonidan sotib olish tizimini joriy etish va bu jarayonlarni davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va boshqalar.

Yuqoridagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish orqali meva-sabzavotchilik tarmog'ida ham "aqlli qishloq xo'jaligi" elementlarini joriy etish, meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va qishloq aholisining qo'shimcha daromadini ko'paytirishga, pirovard natijada tarmoqning modernizatsiya darajasini yanada ortishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Юсупов А., Рашидбеков А. Опыт Нидерландов в сфере развития сельского хозяйства. Сайт Института Стратегических и межрегиональных исследований при Президенте Республики Узбекистан [хтttpс://исрс.уз/ру/мақолалар/опыт-нидерландов-в-сфере-развития-сельского-хозяйства](http://исрс.уз/ру/мақолалар/опыт-нидерландов-в-сфере-развития-сельского-хозяйства)



2. Селскойе хозяйства США. Сайт:CAWATER-инфо. http://www.cawater-info.net/review/agro_usa.htm
3. Обзор торговой и сельскохозяйственной политики Соединенные Штаты Америки.
http://www.fao.org/fileadmin/templates/est/meetings/wto_comm/RU/Trade_policy_brief_US_RUS_final.pdf
4. Кутбитдинов Ю. Обзор инновационных технологий и зарубежного опыта “умного” сельского хозяйства. Экономическое обозрение №3 (231) 2019
<https://review.uz/post/umniye-instrumentiy-selskogo-hozyaystva>
5. Особенности и проблемы кредитования сельского хозяйства в России. Электронный научный журнал “Аэкономика: экономика и сельское хозяйство” 2015 год.
<https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-i-problemy-kreditovaniya-selskogo-hozyaystva-v-rossii>

